



O'ZBEK TILIDA YUKLAMALASHISH HODISASI

Nazarov Rasulberdi

SamDU filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8059408>

ARTICLE INFO

Received: 11th June 2023

Accepted: 19th June 2023

Online: 20th June 2023

KEY WORDS

Yuklama, konversiya,
transpozisiya, nisbiy yuklama,
asliy yuklama.

ABSTRACT

So'z turkumining boshqasiga ko'chishi haqida, yuklamalashish hodisasi va misollar, konversiya va transpozisiya hodisasi.

Tilshunosligimizda bir leksik-grammatik kategoriyadagi so'z o'rnida boshqa kategoriyadagi so'z qo'llanilishi mumkin. Masalan: "Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog' " maqolida " yaxshi ", " yomon " so'zlari xususiyat bildiruvchi sifat hisoblanadi, biroq bu o'rinda " yaxshi ", " yomon " sifatlari ot o'rnida qo'llanilgan. Yoki " Ukamni deb kitob oldim " gapida deb so'zi fe'l turkumiga oid so'z bo'lib, bu o'rinda ko'makchi funksiyasini bajarganini ko'rish mumkin. " Mana, boshqarma plan bo'limida uni rosa qizartirishdi " gapida qo'llangan " mana " olmoshi ko'rsatish vazifasini yo'qotib gapga ta'kid ma'nosini yuklagan va nisbiy yuklama vazifasini bajargan. Bulardan anglashiladiki, bir leksik-grammatik kategoriyadagi so'zning boshqa kategoriyaga o'tishi so'z hosil qilishning bir ko'rinishidir. Bunda so'z turkumi o'zgaradi. Odatda, bu gap va so'z birikmalarining kuchi bilan yuzaga keladi. So'zlarni bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tish **konversiya**, **ba'zan transpozisiya** deb nomlanadi. **Transpozisiya** hodisasini R. Sayfullayeva va boshqalarning " Hozirgi o'zbek adabiy tili " kitobida " So'z turkumining ko'chishi – **transpozisiya** deganda ma'lum bir turkumga ma'nsab so'zning o'ziga xos bo'lgan atash, vazifa semasini kuchsizlantirib, boshqa so'z turkumiga xos semantik va grammatik belgiga ega bo'lishi tushuniladi"¹ deya ta'kidlab o'tishadi.

Bir so'z turkumidan ikkinchisiga o'tish haqida gapirishdan oldin qaysi til haqida bahs borayotganligi, shu tilda so'z turkumlarining faqat shu til uchun xos bo'lgan tizimiy, substansial belgilari ochilgan-ochilmaganligi ustida o'ylab ko'rish, masalaga shu til imakoniylatlari va xususiyatlari asosida yondashish lozim. Sababi hech qachon bir til uchun xos bo'lgan me'yor va xususiyatlar ikkinchi til uchun aynan xos bo'lavermaydi.

¹ R. Sayfullayeva va boshqalar.... "Hozirgi o'zbek adabiy tili", -Fan va texnologiya , 2009, 138-b.



Konversiya hodisasi nafaqat mustaqil ma'no anglatuvchi so'zlarga, yordamchi va oraliqdagi so'zlar uchun ham xos hodisadir. Demak, yordamchi so'z turkumlari va oraliqdagi so'zlar ham **transpozisiya hodisasiga** uchraydi.

Barcha turkiy tillarda, shuningdan o'zbek tilida ham shunday turkum borki, ular butun bir jumлага, gapga yoki gap bo'laklariga qo'shimcha ma'no, har xil subektiv, emotsional-ekspressiv va modal mazmunini beradi. Yordamchi so'z turkumlarining bu turi yuklamalar deyiladi. Gap tarkibida ularning asosiy vazifasi – gap bo'lagi va gaplarga qo'shimcha (so'roq-tajjub, kuchaytiruv-ta'kid, o'xshatish-qiyoslash, inkor.....) ma'no yuklashdir.

Professor A. Pardayev o'zining "Til tizimida yordamchi so'zlar" nomli monografiyasida J. Hamdamovning quyidagi fikrlarini keltirib o'tadi:

"Yuklamalar turkiy tillarda, jumladan o'zbek tilida boshqa turkumlardagi so'zlarga nisbatdan keyinroq (lekin bog'lovchidan oldinroq) paydo bo'lgan grammatik kategoriya bo'lib, ular modal so'zlar bilan qo'shimchalar orasidagi joyni egalaydi. Yuklamalarning ko'pchiligi ot, fe'l, olmosh, ravish kabi mustaqil ma'noli so'zlardan kelib chiqqan deb hisoblaydi. Binobarin, eng qadimgi turkiy tilda grammatik jihatdan rasmiylashgan, alohida turkum bo'lib ajralib chiqqan yuklamalar yo'q edi. Ba'zi ot va fe'llar yuklama vazifasini bajarar edi"².

Bundan kelib chiqadiki, yuklamalar ham **konversiya hodisasi uchraydi**. Tilshunisliligimizda yuklama vazifasida bo'lmagan so'zlarni yuklama vazifasida kelishi partikulatsiya hodisasi (> Part) (yuklamalashish) deb yuritiladi. Yuklamalar **konversiya hodisasiga uchrash yoki uchramasligiga** ko'ra ikki guruhga bo'linadi.

1. Asliy yuklamalar (faqat yuklama vazifasida)
2. Nisbiy yuklamalar (yuklama funksiyasini bajaruvchi)

Sifat turkumiga mansub *yakka, yakka-yu yagona, yagona yomon, tanho* kabi so'zlar gap yoki so'z birikmasi talabi bilan yuklama vazifasini ham bajarishi mumkin: **Yomon so'zi:** 1) *Har qanaqa dehqon ham qishdan chiqib qo'lga ketmon olganida ishga bunchalik zo'r bermaydi. Ketmon yomon narsa, chaqib qo'yadi. Bir-ikki kun belni, qo'lni ishga o'rgatib olib, keyin zo'r beriladi.* (Said Ahmad, Ufq 383-bet); Qiyoslang: 2) *Inoyat oqsoqol uni ko'pchilik o'rtasida yomon haqorat qilgan edi. Uni xoindan olib, xoinga soldi. Mening bolamga ham xoinlikni o'rgatmoqchimisan, dedi.* (Said Ahmad, Ufq, 415-bet);

Birinchi gapda qo'llanilgan yomon so'zi ketmonning yaxshi narsa emasligini ifodalab kelgan sifat, ikkinchi gapda qo'llanilgan yomon so'zi haqoratning nihoyatda kuchli ekanligini ifodalab kelgan kuchaytiruv-takid yuklamasi vazifasini hisoblanadi.

Yagona so'zi: Bu so'z asli "bitta" ma'nosini anglatadigan sanoq songa tojikcha yak sanoq soniga –ona qo'shimchasining qo'shilishidan hosil qilingan, *birdan-bir, yolg'iz* ma'nosini anglatadi. Yagona so'zining O'TIL da yana yuklama ma'nosida ham kelishi aytib o'tilgan.

Masalan: 1) *Gapirib darmoni qurigan edi. Lekin Umida u bilan gaplashib olganiga xursand bo'ldi. Bu oddiy gina gap fransuz uchun juda zarur edi shekilli. Balki dilidagi yagona, eng ezgu gapidir.* (Asqad Muxtor, Chinor, 309-bet) Qiyoslang: *Shirin afsonalar aytib yulduzlar, Yoniga chorlaydi meni yagona.* (Rauf Parfi, Saylanma, 237-bet).

² Пардаев А. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2011. –122 б.



Birinchi gapda ishtirok etgan yagona so'zi sifat, ikkinchi gapda esa ayiruv yuklamasi (faqat meni) vazifasini bajararmoqda.

Tanho so'zi O'TIL da to'rtta ma'nosi bor ekanligi qayt qilingan. Uning bosh ma'nosi sifat so'z turkumiga oid bo'lib, "boshqa kimsadan, narsadan xoli" ma'nosini ifodalab kelgan³. Masalan: *Xuddi ayozda hovlida qolgan chelak betidagi muzdek oy ko'kda **tanho**, g'aribgina suzayotgan kechada Jannat xolani xayol allaqayoqlaiga sudrab ketdi.* O'TIL da tanho so'zi ayirish, chegaralashni ifodalashi, bu ma'noda "faqat" yuklamasi bilan sinonimlik hosil qilshi aytilgan. Masalan: *U dargohda rang bor, olov bor, **Tanhogina** sen yo'qsan, gulim.* (Rauf Parfi, *Ko'zlar sheri*); *Qiyoslang: U dargohda rang bor, olov bor, faqatgina sen yo'qsan, gulim.* Yuqorida keltirilgan gapda tanho so'zi olmoshni ayrib-chegaralab kelish uchun qo'llanilgan bo'lib yuklama vazifasi bajargan.

Yakka so'zi O'TIL da sifat so'z turkumiga mansub "yagona" ma'nosidagi so'zligi aytib o'tilgan. Demak, yakka so'zi sifat bo'lganda "yagona" sifati bilan ma'nodoshlik hosil qiladi: *U shu ko'yi ancha jim o'ttigandan keyin sovib qolgan choyni ho'plab, Jannat xolaga qaradi: - **Yakka** qolganing yomon bo'libdi. Ular kelguncha Toshkentga olib ketaymi? Biznikida tura turasan.* (Said Ahmad, *Ufq*, 267-bet); *Qiyoslang: U shu ko'yi ancha jim o'ttigandan keyin sovib qolgan choyni ho'plab, Jannat xolaga qaradi: - **yolg'iz** qolganing yomon bo'libdi. Ular kelguncha Toshkentga olib ketaymi? Biznikida tura turasan.*

Yakka so'zi yuklama vazifasida kelishi ham mumkin. Bunday hollarda yakka so'zi "faqat" yuklamasi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi: *Kechqurunlari horib-charchab chodiri oldida **yakka** o'zi choy ichib o'tirardi. Tol tagidagi so'rda gurunglashib o'tirganlaming oldiga bormaydi. Ular suhbatiga aralashmasligining sababini Nizomjon biladi.* (Said Ahmad, *Ufq*, 409-bet); *Qiyoslang: Kechqurunlari horib-charchab chodiri oldida faqat o'zi choy ichib o'tirardi. Tol tagidagi so'rda gurunglashib o'tirgan laming oldiga bormaydi. Ular suhbatiga aralashmasligining sababini Nizomjon biladi.*

Son so'z turkumiga oid *bir, bitta, bitta-yu bitta* so'zlari ham gapni yoki gap bo'lagini ajratish, ta'kidlash, ayirish-chegaralash uchun xizmat qiladi va yuklama vazifasini bajaradi: *Bir so'zi: Bu so'z miqdor bildirib kelgan o'rinlarda son so'z turkumi vazifasini bajaradi. Ba'zi otlar (kishi, narsa, odam, joy, gap kabi so'zlar) oldidan kelgan bir so'zi o'zidan keyingi so'zga gumon ma'nosini yuklaydi va "qandaydir, "allaqanday" kabi ma'nolarni bildirib keladi.* Masalan: *1. Balki dilidagi yagona, eng ezgu gapidir. Umida **bir** savob ish qilgandek, o'zini yengil tortdi. Buning ustiga uni nemis ham chaqirib qoldi.* (Asqad Muxtor, *Chinor*, 309-bet); *Qiyoslang: Ayniqsa erkagi: yo'l-yo'l ipak ko'ylagining yoqasini ochib, pidjagini bilagiga solib olgan, soqol-mo'ylovini hozirgina qirdirgan, doim iljayibroq turadigan, odamning dilini xira qiladigan darajada shirin-chuchmal aftli **bir** kishi edi.* (Asqad Muxtor, *Chinor*, 122-bet); **Bir so'zi** kesim vazifasida kelganda o'xshashlik ma'nosini ifodalaydi va aniqlov yuklamasi vazifasini bajaradi: *Aziz polvon sizni alia qip qo'yihti-ku. U kechaning o'zida o'n olti kubadan tuproq tashipti. Siz o'n bittadan oshira olmadingiz. Otingizni qofiyadosh qilib Esh polvon o'miga Mesh polvon qo'ya qohng. - U tuproq tashipti, men tosh. Farqi bormi, yo'qmi, nodon. Esh akangni bilmas ekansan. - Tarozga solsa ikkovi ham **bir**. Esh polvon gap topolmay boshidan gazetani olib g'ijimlab otdi.* (Said Ahmad, *Ufq*, 133-bet). **Bir** so'zi begi bildiruvchi yoki harakat bildiruvchi

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 2-том, Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.2006.461-б



so'zlarning oldidan kelib, o'zidan keying so'zning ma'nosini kuchaytirib, ta'kidlab, bo'rttirib keladi: *Tosh qazishda, yuqoriga tashib chiqishda hech kim unga teng kelolmayapti. Shuni bir yaxshilab gazetaga yozinglar. Sobir qo'shiq yozadi. Usta kuy bastalaydi.*

Fe'l so'z turkumiga xos bo'lgan **kelib-kelib, boringki, ke, kel aytaylik, deylik, qo'ying, kabi so'zlar ham yuklamalashgan holda so'z, so'z birikmasi yoki gapga modallik va kuchaytirish ma'nolarini yuklashi mumkin: Bunday hollarda kelib-kelib, boringki kabi so'zlar harakat ma'nosini butunlay yo'qotadi. Masalan: 1) Azizxon qishloqda shuncha sho'xlik qilib umrida biron marta uzr so'ramagan edi. Kelib-kelib endi mutlaqo notanish, uning ustiga yurtdoshlarini ermak qilgan kishidan uzr so'raydimi? Azizxon qo'lini ko'ksiga qo'yib uzr so'rashga borolmasligini aytdi. (Said Ahmad, Ufq, 54-bet) ; 2) Risolat unga qarab mahliyo bo'lib qoldi. Ammo sir boy bermadi. — Sovuqqina ekan. Diding qursin. Kelib-kelib shuni topdingmi. Dildor qayoqda-yu, bu turqi sovuq qayoqda! (Said Ahmad, Ufq, 406-bet);**

Yuqorida keltirilgan har ikki misollarda ham "kelib-kelib" so'zi yuklama vazifasini bajarib, gaplarga kuchaytirish-ta'kid ma'nolarini yuklab kelgan.

Boringki so'zi: Bog'da olma, uzum..... boringki, yo'q narsaning o'zi yo'q edi. (N.Mahmudov, A. Nurmonov, 7-sing ona tili, 74-bet). Ushbu gapda "boringki" so'z harakat ma'nosini tamomila yo'qotib, gapga kuchaytiruv takid ma'nolarini yuklab kelgan.

Ke so'zi nisbiy yuklama vazifasini bajaganda, so'zdan ifoalangan harakat ma'nosi butunlay yo'qoladi: *Oqsoqol yalinib so'raydi: - Jon uka, ko'pdan beri pul sanaganim yo'q. Ke, bitta sanab beray. Juda sog'indim. (Said Ahmad, Ufq, 398-bet); Qayda bo'lsa ham sanqib-sanqib, qaytib keladi. Ammo yonidagi lo'kidoni bilan qayerga sig'adi? Uyga kiritsak qishloq xalqi nima deydi! Gapning hali bu tomoni ham bor. Bu sharmandalikni ham bir bo'yinga olib qo'yish kerak. Ke, xotin, ko'chib ketaylik. (Said Ahmad, Ufq, 398-bet).*

References:

1. R. Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili . -Toshkent, Fan va texnologiya, 2009;
2. Пардаев А. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2011. –122 б;
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 2-том, Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.2006.680-б
4. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Самарқанд, СамДУ, 1994. –25 б.